BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA O‘QISHGA QIZIQISHNI MULTIMEDIA VOSITALARI VOSITASIDA OSHIRISH

Olimova Nilufar Qosimjon qizi
FarDU o‘qituvchisi, p.f.b.f.d (PhD)
Ikromova Xalima Asilali qizi
FarDU talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.23835731

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishda multimedia vositalaridan foydalanish haqida fikr yuritilgan. Hozirgi kunda darslarni qiziqarli tashkil etishda turli rasmlar, videolar, audioyozuvlar va elektron taqdimotlardan foydalanish muhim hisoblanadi. Bunday vositalar o‘quvchilarning diqqatini jalb qilishga va mavzuni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Shuningdek, ulardan foydalanishda uchraydigan ba’zi bir kamchiliklar ham ko‘rib chiqilgan. Jumladan, texnik vositalarning yetishmasligi va ekrandan ortiqcha foydalanish kabi muammolar yoritilgan va ularning yechimlar haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: multimedia, boshlang‘ich sinf, qiziqish, o‘quvchi, dars, AKT, animatsiya, innovatsiya, interaktiv ta’lim.

Аннотация. В данной тезисной работе рассматривается использование мультимедийных средств для повышения интереса учащихся начальных классов к обучению. В настоящее время для организации интересных уроков важно использовать различные изображения, видеоматериалы, аудиозаписи и электронные презентации. Такие средства помогают привлечь внимание учащихся и лучше понять учебный материал. Также рассматриваются некоторые недостатки использования мультимедийных средств. В частности, освещаются проблемы недостатка технических средств и чрезмерного использования экранов, а также рассматриваются возможные пути их решения.
Ключевые слова: мультимедиа, начальная школа, интерес, ученик, урок, ИКТ, анимация, инновация, интерактивное обучение.

Abstract. This thesis discusses the use of multimedia tools to increase primary school students’ interest in learning. Nowadays, various pictures, videos, audio recordings, and electronic presentations are important for making lessons more interesting. These tools help attract students’ attention and improve their understanding of the learning material. The thesis also examines some disadvantages of using multimedia tools. In particular, it highlights problems such as a lack of technical equipment and excessive screen time, as well as possible ways to address these issues.
Keywords: multimedia, primary school, interest, student, lesson, ICT, animation, innovation, interactive learning.

Kirish. Bugungi kun zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitish va ularni darsga jalb qilish dars o‘tayotgan har bir o‘qituvchidan juda katta mas’uliyat va yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Negaki, hozirgi bolalar juda yoshligidan telefon,planshet va kompyuter o‘yinlariga o‘rganib qolgan. Ularni oddiy doska va bo‘r bilan yoki darslikdagi matnlarni o‘qitish orqali darsda ushlab turish juda qiyin bo‘lyapti. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda,ya’ni 1-4 sinf bolalarida o‘qish faniga bo‘lgan qiziqish ancha pasayib ketayotgani hech kimga sir emas. Bolalar harflarni o‘rgangandan keyin ham matnlarni shunchaki maburlikdan o‘qiydi, lekin mazmunini tushunmaydi. Shu sababli dars jarayonida turli ko‘rgazmali vositalar va multimedia texnologiyalaridan foydalanish yaxshi samara berish mumkin.

Multimedia vositalari deganda, matn, tasvir, ovoz, video, animatsiya va boshqa axborot shakllarini birgalikda taqdim etish imkonini beradigan vositalar tushuniladi. Masalan, kompyuter, proyektor, elektron taqdimotlar, ta’limiy videolar va interaktiv topshiriqlar shular jumlasidandir. Agar biz darsni faqat o‘qituvchining gapirishi bilan emas balki mana shu texnikalar bilan tashkil qilsak, bolaning darsga o‘qishga bo‘lgan mehri oshadi. Ular darsda o‘zlarini erkin his qilgisi keladi va qiziqarli o‘yinlar orqali mavzuni tezroq o‘zlashtiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi ma’lumotlarni ko‘rish,eshitish va amaliy mashg‘ulotlarda qatnashish orqali osonroq o‘zlashtirishlari mumkin. Shu jihatdan multimedia vositalari darsni jonlantirish, mavzuni tushunarli yetkazish va o‘quvchilarni faolligini oshirishda yordam beradi. Masalan, xalq ertaklarini o‘tishda, avval o‘quvchilarga matn o‘qitiladi keyin esa proyektor orqali ertakning qisqacha videoroligi ko‘rsatiladi. Bu bolalarda ertak qahramonlariga bo‘lgan qiziqishni uyg‘otadi va keying safar darslikdagi boshqa ertaklarni ham qiziqib o‘qiy boshlaydi. Yana bir misol qilib tabiiy fan darsligini olsak, bu fanda o‘simliklarning o‘sishi haqida faqat og‘zaki ma’lmot bermasdan, urug‘ning unib chiqishi va uning rivojlanishini ko‘rsatuvchi qisqa videoroliklardan foydalanish mumkin. Bunda o‘quvchilar o‘simlikning o‘sish jarayonini aniqroq tasavvur qiladilar.

Multimedia vositalarining yana bir afzalligi shundaki,darsda o‘quvchilarning ishtorikoni oshirishga yordam beradi.Masalan,mavzu yakunida rasmlar asosida savol-javob tashkil etish yoki electron test va krasvordlardan foydalanish mumkin.

Biroq multimedia vositalarining samarasi faqat texnik vositaning mavjudligiga bog‘liq emas. Ulardan hamma o‘qituvchilar ham birdek foydalana olmayapti.Agar ko‘rsatilgan video dars mavzusiga mos kelmasa yoki juda uzoq davom etsa, o‘quvchilarning diqqati asosiy mavzudan chalg‘ishi mumkin. Shuning uchun har bir multimedia materiali dars maqsadiga muvofiq tanlanishi lozim. Multimedia vositalarini turli usullarda qo‘llash mumkin. Ulardan biri darsning kirish qismida qisqa video orqali namoyish etish.Bu usul orqali o‘quvchilarda yangi mavzu uchun qiziqish uyg‘onadi va diqqatlari dars sohasiga qaratilgan bo‘ladi. Ikkinchi usul:ta’limiy o‘yinlardan foydalanish. Masalan, o‘quvchilarga mavzu mos rasmni joylashtirish misollarning javobini topish yoki “Edubaza.uz” sayti orqali mavularga mos topshiriqlar berishimiz mumkin. Bunday mashqlar bolalarning darsda faol qatnashishiga yordam beradi.

Lekin multimedia vositalaridan foydalanishning ham o‘ziga yarasha kamchiliklari va qiyinchiliklari bor. Hamma maktablarda ham proyektoryalar yoki internet yaxshi ishlamaydi. Ba’zi joylarda elektr muammosi bo‘lishi mumkin,shunda o‘qituvchi tayyorlab kelgan darsi qolib ketadi. Yana bir kamchilik shundaki,agar multimedia darsidan to‘g‘ri foydalanilmasa,bola faqat ekranga tikilib, kitob o‘qishni umuman yodidan chiqarib qo‘yishi

ham mumkin. Multimediadan darsning hamma daqiqasida emas, balki bolalar charchagan payda yoki mavzuni mustahkamlayotganda 10-15 daqiqa foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Asosiy maqsad bolaga ko‘proq video ko‘rsatish emas, balki uning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish va mavzuni yaxshiroq tushunishiga yordam berishdir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qishga qiziqishini multimedia orqali oshirish bugun juda ham natija beradigan usul hisoblanadi. Vizual va audio ma’lumotlar bolalarning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi va ularning darsga bo‘lgan passivligini yo‘qotadi. Kelajakda darsliklarni ko‘proq QR-kodli qilib,ularga multimedia elementlarini biriktirish dars samaradorligini yanada oshiradi deb o‘ylayman. Buning uchun maktablarni texmik jihatdan ta’minlash va bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini AKT bo‘yicha yaxshi tayyorlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ishmuhamedov, M.Abduqodirov, A.Parayev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (amaliy tavsiyalar). – T. “Iste’dod’’ jamg‘armasi, 2008.
2. M.E.Jumayev. Boshlang‘ich ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi. – T. “O‘qituvchi’’. 2010.
3. Ziyonet.uz axborot-ta’lim tarmog‘i materiallari.